



# BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA KITOBOXONLAR BURCHAGINI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI

**Sotvoldiyev Abdurashid Ismoilovich**

Oltinko'l tumani, 17-umumta'lim maktabi boshlang'ich  
sinf o'qituvchisi

## Annotations:

Mazkur maqolada boshlang'ich sinflarda tashkil qilinadiganto'garaklarda kitobxonlar burchagini tashkil etishning zarurati, ahamiyati, bolalarning kitobga bo'lgan qiziqishlarini va undan foydalanishning eng oddiyqoidalarini boshlang'ich sinflardayoq shakllantirish shu kunning muhim talabi ekanligi yoritib berilgan.



Ma'lumki, kitobxonlik o'quvchilarining aql-zakovatini, yuksak ma'nnaviyatini, ijodiy qobiliyatini shakllantirish va rivojlanirishda, kitobga mehr-muhabbar hamda uni zaruriyatga aylantirishning ma'lum tizimdir. Bu tizim boshlang'ich sinf o'quvchilarining aqliy, ma'naviy, axloqiy rivojlanishini ham ta'minlaydi, kitob o'qish ishtiyoyqini hosil qiladi. Bunday ishlarni amalga oshirishda boshlang'ich sinflarda tashkil qilinadigan kitobxonlar burchagining tashkil qilishning ahamiyati katta.

Президент 2017 йил 12 январь куни "Китоб маҳсулотларини чоп этиш ва тарқатиш тизимини ривожлантириш, китоб мутолааси ва kitobxonlik madaniyatini oshiishi hamda tarfibot qiliishi bўйича комиссия тузиш тўғрисида"ги Фармойишни имзолади. Bundan asosiy maqsad taъlim muassasalariida sinfdan tashkari ўқиш учун tavsiya etilgan ўзбек ва чет эл адиларининг mumtоз ва замонавий asarlari tamlab, xrestomatiya adabiётлари rўйhatlari қайta kўrib chiqishi va ўкуv jaraёninga mutolaas etilgan asarlар асосида insho ёзиш тизимини жорий этиш, adabiёт tўgaraklari faoliyatini moddij kўllab-kuvvatlash tizimini қайta kўrib chiqishi; axoli, aйnixsa, ёшлиар орасида badiiy jihatdan yoxsak, intellektual saviyani ўstireshga xizmat қiladigan kitoblariga bўlgan talaabni ўрганиш ham ko'zda tutilgan. Bugunning talabi ёшlarning intellektual salohiyatini oshiishiha қaratilgan adabiётlarни чоп этиш, ular bilan taъlim muassasalariini taъminlaш, milliy va jahon adabiёti namoyandalarining etuk asarlari sara-laş, tarjima qiliishi iшlari puxta ўйlanangan tizim асосида tashkil etilishi shat qilib qo'yilgan.

Demak, bolalarning kitobga bo'lgan qiziqishlarini va undan foydalanishning eng oddiy malakalarini tarbiyalashni boshlang'ich sinflardan qilish shakllantirilishi zarur. Masalan, har bir sinfda kitobxonlar burchagi tashkil etish mumkin. Kitobxonlar burchagi o'zining tashqi ko'rinishi bilan bolalarni o'ziga jalb qilishi kerak. Kitobxonlar burchagiga bolalar hayotidan, ertaklardan olingan rasmlardan osib qo'yish ham mumkin. Shoir va yozuvchilarining, masalan, P. Mo'min, Q. Muhammadiy, E. Vohidov, A. Oripov va boshqalarning portretlarini qo'yish

mumkin. Bu adiblar bilan ularning yozgan asarlari haqida ularning kitoblarini bolalarga o'qib berayotgan vaqtida tanishtirib boradi. Har bir sinf uchun alohida kitoblar tanlanadi. Qo'shimcha adabiyotlar ham o'qituvchi tomonidan tanlanib, kitob javonida saqlanadi.

1-, 2- sinfning kitobxonlar burchagida 3-, 4- sinf bolalari uchun mo'ljallangan kitoblar ham bo'lishi mumkin, xuddi shunday yuqori sinfning kitob burchagida ham 1-, 2- sinf uchun mo'ljallangan kitoblar bo'lishi kerak. Kitobxonlar burchagida tashkil etilgan (javon) kitob mavzular bo'yicha qo'yilib, ular bir-biridan ko'rsatkich taxtacha bilan ajratib qo'yiladi, ya'ni ko'rsatkich taxtachaga kitob mavzusiga taalluqli rasm yopishtiriladi. Masalan, tabiat to'g'risidagi kitobni yoki ertak kitobni bola osonlik bilan topib olishi uchun tabiat manzarasi tasvirlangan yoki ertak mazmuniga taalluqli rasm yopishtirilgan taxtacha bilan bir- biridan ajratib qo'yiladi. Kitobxonlar burchagida bir nomdagi kitobdan bir necha nusxadan (ikki, uchta) qo'yiladi, chunki bolalarining bir qanchasi bir vaqtida ko'rishni istaydi. Kitobxonlar burchagidagi kitoblarni vaqtiga bilan almashtirib turish kerak.

O'qituvchi darsdan tashqari qulay vaqtida bolalarni kitobxonlar burchagidagi kitoblar haqda suhbat o'tkazadi, asarlarni o'qib yoki hikoya qilib beradi, mualliflar bilan tanishtiradi, bolalarga oldingi mashg'ulotlardan tanish bo'lgan, shuningdek dasturga kiritilmagan asarlarni takror o'qib berish mumkin. Darsdan tashqari vaqtida tabiat haqidagi asarlarni, lirk she'rlarni, matal va kochirimlar, topishmoqlar va xokazolarni aytib berish bolalarning his-tuyg'ulariga katta ta'sir etadi. Darsdan tashqari vaqtida o'qib berilgan kitob haqida, yozuvchi va shoirlar haqida suhbatlar o'tkaziladi. Bu bolalarda badiiy asar namunalarini aytib berishga, kitobga qiziqishga yordam beradi.

Kitobxonlar burchagidagi kitoblarni o'quvchilar o'qib bo'lganlaridan so'ng olgan taassurotlari yuzasidan tadbirlar o'tkazishlari mumkin. Bunday tadbirlar o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

#### Kitob bizning do'stimiz

(4-sinflar uchun)

Sahna ilmu ma'rifatga da'vat etuvchi shiorlar, hadislар yozilgan plakatlar, shoir va yozuvchilarining portretlari bilan bezatiladi. Shuningdek, turli badiiy kitoblardan namunalar, ular haqida ma'lumot beruvchi bukletlar ham qo'yiladi.

Tadbirni boshlovchilar va o'quvchilar olib borishadi. Musiqa sadolari ostida sahnaga boshlovchilar tashrif buyurishadi,

1- boshlovchi: Assalomu alaykum, aziz mehmonlar, hurmatli ustozlar, qadri o'quvchilar!

2- boshlovchi: Assalomu alaykum, aziz tengdoshlar! Bugun o'tkazilayotgan 4-sinf o'quvchilarining "Kitob - bizning do'stimiz" mavzusiga bag'ishlangan tadbiriga xush kelibsiz!

O'quvchilar kitob haqida she'r aytadilar.

O'quvchi:

Yosh o'ynoqi ko'zlarim,  
Shuur olar kitobdan.  
Tashkil topib so'zlarim,  
Baxtim kular kitobdan.  
Shuning uchun deymanki,  
Kitob, mening do'stimsan!

O'quvchi:

Har sahifang men uchun,  
Bir hikoyat so'zlaydi.  
„O'qib, olim bo'lgin“, - deb,  
Yaxshi niyat ko'zlaydi.  
Shuning uchun deymanki,  
Kitob, mening do'stimsan!

O'quvchi:

Kitob - bilimning boshi,  
Aql-u idrok quyoshi.  
Kitobda nurli iqbol,  
O'qib topaman kamol.

1- boshlovchi: Qadimda ota- bobolarimiz kitobni qo'llariga olganda, avval o`pib ko'zlariga surtganlar. Keyin ochib, o'qiganlar. Bu ularning "Bizga bilim berding, seni ko'z qorachig'idek asraymiz" degan e'tirofi bo'lgan. Ajdodlarimiz kitobni muqaddas boylik deb bilganlar. Hissa:

Kitob - bilim bulog'i  
O'quvchining o'rtog'i.

2- boshlovchi: Qani, bu borada kitobning o'zi nima derkin?

Sahnaga kitob siymosida bir o'quvchi chiqadi va she'r o'qiydi.

Tanishaylik, men - kitob,  
Asl bilimlarga kon.  
Boyluk beray behisob,  
Bo'lsang agar qadrdon.  
Lekin yirtib, burdalab,  
Kamaytirma varag'im.  
Sendan yana bir talab  
Iflos qilma hech yog'im.

Yana bir o'quvchi kitobni sharhlab she'r o'qiydi.

Kitobda bilim lim-lim,  
O'qi qunt bilan, do'stim.  
Topmoq istasang kamol,  
Oltin olma, duo ol,  
Tinmay o'qisang agar,  
Ko'p narsani o'rgatar.  
Bilsang, yo'lingda oftob,  
Bilim koni bu - kitob.

Boshlovchilardan biri rivoyat aytadi.

O'tgan zamonda bir podsho vaziru ulamolarini yoniga chaqirib ularga "Dunyoda eng zo'r, kerakli va hamma narsadan xabardor qiluvchi nima?" - degan savolni beribdi. Ulamolarning biri qilich desa, ikkinchisi "Hamma narsadan xabar beruvchi narsa - oynai jahon", - debdi. "Uch kun muhlat beraman", - debdi ulamolarining javobidan darg'azab podsho. Qo'shni podsholikda ta'rifi yetti iqlimga ketgan donishmand yashar ekan. Vazir podshoning savoliga shu donishmand javob bera olishiga aqli yetibdi va uni izlab topibdi. Unga podshoning savolini aytibdi. Donishmand hech ikkilanmay: "Kitob. Chunki kitob bilim beradi. Dunyodagi eng qudratli narsa esa kitobdir", - debdi.

Donishmandning vazirga bergen javobi podshoga ma'qul tushibdi.

"Kitobim qo'limda" qo'shig'i ijro etiladi.

O'quvchilar she'r aytadilar:

Men kitobni ochaman,  
Kitob aqlimni ochar.  
Men kitobni ochaman,  
G'aflat tun kabi qochar.  
Men kitobni ochaman,  
Kitob ochar dunyon.  
Men kitobni ochaman,  
Kitob ochar ziyoni.

Kitob qalbda mudragan,  
Tuyg'ularni qo'zg'atar.  
Tong chog'i u onamday,  
Orzularni uyg'otar.

1- boshlovchi: Hozir o'quvchilarimiz sizlarga o'zida durdona fikrlar mujassamlashgan hikmatlardan namunalar aytishadi.

1- o'quvchi:

Bilimdan ortiq boylik yo'q.

2- o'quvchi:

Kitob - bilim manbai.

3- o'quvchi:

Bilgan o'qir, bilmagan to'qir.

4- o'quvchi:

Avval o'rgan, keyin o'rgat.

5- o'quvchi:

Aqlning qayrog'i - bilim.

6- o'quvchi:

Ilm olsang dunyoda,

Aqlning bo'lar ziyoda.

7- o'quvchi:

Kitob - xazina,

Bilim - boylik.

8- o'quvchi:

Bilim - baxt keltirar.

9- o'quvchi:

Kitob - aql chirog'i.

10- o'quvchi:

Kitobdan yaxshi do'st yo'q.

1- boshlovchi: Barcha mavjudotlar ichida eng oliysi insondir. U o'z odobi va ilmi, go'zal qalbi hamda mehnati bilan sharaf sohibidir.

O'quvchi:

Orzularim bir jahon,

Poydevor unga kitob,

Hayotim yo'llarini,

Yoritar nurli oftob.

1- boshlovchi: Biz tarixan ulkan madaniyatga ega xalqning bilimi kuchli, ma'naviyati yuksak avlodmiz. Barkamollikka, komillikka erishgan Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon kabi go'zal qalb sohiblari, aziz kitobxonlar vakilimiz.

2- boshlovchi: Kitob - sehrli olam. Unga bir sho'ng'isang, qachon chiqib ketishingni bilmaysan. Inson kitob bilan do'st tutinar ekan, u hech qachon to'g'ri yo'lidan adashmaydi. Kitob tufayligina inson olamga boshqacha ko'z bilan boqadi.

Har bir insonning o'z sevimli kitobi va yozuvchisi bo'ladi. Kitob saodat topish uchun o'qilmaydi. Uning o'zi bir soadatdir.

Kitob ochdi menga dunyo eshigin,

O'rgatdi u menga neligin ijod.

Tarixni o'qidim, ko'rdim kelajak,

"Alifbe"ni o'qib, chiqardim savod.

1- boshlovchi: "Kitob barcha bunyodkorlik, yaratuvchanlik va aql- idrokning, ilmu donishning asosidir, hayotni o'rgatuvchi murabbiydir", - degan edi buyuk sarkarda bobomiz Amir Temur. Endi donolarning kitob haqidagi qimmatli fikrlarini tinglaymiz.

1- o'quvchi:

Kitob - sehrgar. U dunyoni qayta qurdi. Unda odamzodning aqli mujassam, u kishilik tafakkurining ustuni.

2- boshlovchi: Endi navbat qiziqarli ma'lumotlarga asoslangan «Bilasizmi?» sahifasiga.

1- o'quvchi: Tib ilmining buyuk namoyandasi Ibn Sino bobomiz butun umri davomida ijod, ilmu tadqiqot bilan shug'ullanib, 276 ta kitob yozib qoldirgan. Uning kitoblari asosan ilmiytahliliy asarlardir. Hajmi ham zamonaviy ilmiy-ommabop kitoblardan bir necha barobar katta bo'lgan. Birgina «Ash-shifo» kitobining o'zi 18 jildni tashkil etgan.

2- o'quvchi: "Tib qonunlari" kitobi XII-XVI asrlar oralig'ida 40 marta qayta nashr qilingan. Bu kitobga hozir ham ehtiyoj katta.

3- o'quvchi: Markaziy Osiyo xalqlari kitobni qadim-qadimdan e'zozlab kelganlar. Ushbu hududdagi dastlabki kutubxona eramizning II asrida Xorazmda faoliyat ko'rsatgan.

1- boshlovchi: Aziz o'quvchilar! Ko'rdingizmi, yer yuzidagi ko'plab insonlar kitobni sevib, o'zlariga yaqin do'st bilib, e'zozlar ekanlar. Shunday ekan, siz ham bilimlar xazinasi bo'lgan kitobga mehr qo'ying, uni asrab-avaylang.

Boshlovchilar: Hurmatli o'quvchilar, yuqorida fikrlarni tinglab, sizning kitobga bo'lgan mehringiz yanada oshdi, degan fikrdamiz. Shu narsaga doimo amal qiling! O'qib o'rganayotgan kitoblarimizni ko'z qorachig'idek asrab, avaylab saqlaylik. Bu kitoblardan kelajak avlodlar ham foydalansinlar.

Bunday tadbirlar davomida boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki nutqi, fikrlash doirasi, ijodiyy qobiliyati, axloqiy sifatlari rivojlanadi.